Yusupova Iqbol Bahodirovna (Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi; yusupovaiqbol@580gmail.com)

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA TURK FUQAROLARINING FAOLIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqola orqali XX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisdoiy,madaniy-siyosiy hayoti, aholining, ayniqsa, shahar va markaziy hududlarda istiqomat qiluvchi insonlarning turmush tarzi va xo‘jalik hayotiga oid ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu davrga oid ko‘p sonli arxiv manbalari amirlikning bir qator bekliklarida aholi orasida antirus kayfiyatdagi kuchlar soni muttasil oshib borganligi haqida yoritilgan.“Bolqon urush”lari va I jahon urushi yillarida Buxoro amirligida turklarga xayrixohlikni kuchaytirish uchun turk emissarlari Emon Mansur, Said Xolid Eshon, Qutlug‘-xo‘ja Eshon,Mustafo va Mahmud Afandilar muttasil ravishda targ‘ibot olib bordilar. Chor hukumati bunga javoban ularga qat’iy va keskin choralar ko‘rdi.*

Kalit so‘zlar*: Buxoro amirligi, Turkiston general-gubernatorligi, turk va afg‘on fuqarolari, Turkiston rayon qo‘riqlash bo‘limi, “Bolqon urush”lari, “Yosh turklar”, “Ittihod” partiyasi”, Xo‘ja Abdulahad Rohatboyev, Qozi Mulla Mahmud.*

Юсупова Икбал Баходировна (преподаватель, Навоийский государственный университет; , yusupovaiqbol@580gmail.com)

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТУРЕЦКИХ ГРАЖДАН В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX И НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ

Аннотация*. В данной статье представлена информация о социально-экономической, культурной и политической жизни Бухарского эмирата в первой половине XX века, образе жизни и экономической жизни населения, особенно проживающего в городе и центральных районах. Кроме того, многочисленные архивные источники этого периода указывают на неуклонный рост числа антироссийских сил среди населения в ряде княжеств эмирата. Во время «Балканских войн» и Первой мировой войны турецкие эмиссары Эман Мансур, Саид Халид Эшон, Кутлугходжа Эшон, Мустафа и Махмуд Эфенди постоянно вели пропагандистскую деятельность с целью укрепления благосклонности турок к Бухарскому эмирату. В ответ царское правительство приняло против них решительные и радикальные меры.*

Ключевые слова: *Бухарский эмират, генерал-губернатор Туркестана, граждане Турции и Афганистана, окружная охрана Туркестана, «Балканские войны», «Молодые турки», партия «Союз», Ходжа Абдулахад Рохатбаев, Кази Мулла Махмуд.*

Yusupova Ikbol Bakhordirovna (Teacher of Navoi State University; yusupovaiqbol@580gmail.com)

THE ACTIVITIES OF TURKISH CITIZENS IN THE EMIRATE OF BUKHARA IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES

Annotation*. This article provides information on the socio-economic, cultural, and political life of the Emirate of Bukhara during the first half of the 20th century, as well as the lifestyles and economic activities of the population–particularly those residing in urban and central areas. Furthermore, numerous archival sources from this period highlight the steady rise of anti-Russian sentiment among the populations of several *bekliks* (districts) within the Emirate. During the Balkan Wars and World War I, Turkish emissaries–such as Emon Mansur, Said Khalid Eshon, Qutlugh-Khoja Eshon, Mustafa, and Mahmud Afandi–conducted continuous propaganda campaigns to foster pro-Turkish sympathies within the Emirate. In response, the Tsarist government took firm and drastic measures against them.*

Keys words: *Emirate of Bukhara, Governor-Generalship of Turkestan, Turkish and Afghan citizens, Turkestan Regional Security Department, Balkan Wars, Young Turks, "Ittihad" Party, Khoja Abdulahad Rohatboyev, Qazi Mulla Mahmud.*

Kirish. Buxoro amirligi hamda Usmoniylar imperiyasi (Turkiya) va Afg‘oniston davlatlari o‘rtasida mustamlaka yillarida (1868–1917) o‘zaro savdo-sotiq, elchilik aloqlari va madaniy sherikchilik muntazam rivojlanib borardi. Buxoro amirligi aholisi vakillari savdo-sotiq, haj ziyorati, ta’lim olish kabi maqsadlarda Turkiya shaharlari va Afg‘onistonga safarlar qilishardi. Shuningdek, turk fuqarolari ham Buxoro amirligi bekliklarida savdo-sotiq talabini, ta’lim olish, ilmiy ekspeditsiyalarida ishtirok etish, ayrim paytlarda ayg‘oqchilik va targ‘ibotchilik vazifasini bajarish singari maqsadlarda amirlikka tashrif buyurishgan.

O‘zbekiston Milliy arxivi hujjatlaridan birida, ya’ni, 1913-yil 1-iyulda Buxoro amirligidagi veterenar shifokorning Turkiston general-gubernatoriga yo‘llagan 59-maxfiy xatida, Qarshi bekliklarida asli turk

va afg‘on bo‘lgan fuqarolarga mahalliy hukumat va ziyoli qatlam vakillarining munosabati haqida muhim ma’mulotlar keltirilgan. Mazkur maxfiy xat bayonida amirlikning G‘uzor bekligidagi boshqaruvda bek, qozi va rais amaldorlaraning hurmati va mavqeyi yuqoriligi, qozikalon shariat himoyachisi, rais boshqaruv egasi sifatida bekdan mustaqil ish yuritishi, ular o‘z qo‘rg‘on(qarorgohi)ga egaligi ko‘rsatib o‘tilgan. G‘uzor bekligidagi yasulboshi, devonbegi, qorovulbegi, mirzaboshi kabi mansabdorlarga ayrim masalalarda mustaqil bo‘lishgan, xolos. G‘uzor qozisi bekning o‘g‘li qonunga bo‘ysunmagani uchun, xorijiy davlat turk fuqarosining do‘konini tortib olgani uchun uni lavozimidan bo‘shatib, eski Buxoroga, amir huzuriga yuborgan. Bek qanchalik harakat qilmasin, uni o‘z mansabi va avvalgi yeriga qaytara olmagan. Holubki, bekning o‘g‘li o‘z vaqtida miroxur mansabida ishlagan, bekning o‘zi esa 7 yil amir Said Olimxon bilan Sankt-Peterburg (Rossiya) safarida birga bo‘lgan. Xullas, bek amir tarbiyachilaridan biri edi. Rais to‘g‘ridan to‘g‘ri amirga itoat etib, shahar boshlig‘i, ko‘chalar ozodaligini nazorat qiluvchi, shaharda tarozi o‘lchovlarini aniq olib borishni tekshiruvchi kabi mas’uliyatli vazifalarni bajargan. Agar tarozidan urib qolgan savdogar aniqlansa, unga 41 qop jarima solinib, necha gramm urib qolgan bo‘lsa, bunday jinoyatchi o‘shancha tayoq bilan urilgan. Bu qoida xorijiy do‘kondorlarga ham tegishli bo‘lib, agar qassob go‘shtdan 100 gramm urib qolsa, 100 tayoq savalangan. Bunday shaxs pora bersa-da, tayoq zarbi jazosidan qocholmagan. Turk va afg‘on savdo vakillari, baqollar beklikda savdo-sotiqqilish huquqidan mahrum etilib, qozining hukmi bilan chiqarib yu-borilgan.

Biroq shahar bosh mirshabi qozi va raisdan farqli o‘laroq mustaqil harakat qila olmas, balki, bekka bo‘ysunardi. Bekning ruxsatisiz mirshab xorijlik fuqarolarni hibs qila olmagan va o‘zicha tan jazosi bera olmagan. Bizga ma’lumki, Bekliklar volostlarga bo‘linib, volostlar esa oqsoqlliklarga taqsimlangan. Volostni volost boshlig‘i, “elbegi” esa oqsoqollikni boshqargan. Jumladan, Qarshi bekligi 14 ta volostga bo‘linib, volost boshliqlari yoki amlokdor bekka bo‘ysungan, oqsoqollar volost boshlig‘iga bo‘ysunardi. Soliqni oqsoqollar to‘plab volost boshlig‘iga, volost egalari bekka yetkazishgan. Turk va afg‘on bo‘lganlarga nisbatan yuqori soliq solingan. Aslida, soliqlar pul holatida ayrim paytlarda esa mahsulot (natura) tarzida yetkazilgan. Chet elliklar boj va soliqni, asosan, pul hisobida to‘lagan. Suvsizlik va qurg‘oqchilik davrida soliq to‘plash ishlari qiyin kechgan. Manbadalrad qayd etilishicha bek soliqlar miqdorini yil boshida belgilagan, sharoitga qarab o‘zgartirmagan, natijada xalq noroziligi tufayli qo‘zg‘olonlar kelib chiqqan,non yetishmasligi oqibatida ocharchilik ham ro‘y bergan [1;240-b.]. Yuqoridagi fikrlarni keltirishdan asosiy maqsad, Buxoro amirligi bekliklaridagi barcha jarayonlarni amir va uning markaziy ma’muriyati to‘la nazorat qila olmaganligi, bek, qozi, rais singari mansabdorlar o‘z faoliyatida bir-biridan mustaqilligi, volost va qishloqlarda aholi belgilangan soliqni to‘lagandan so‘ng, bir qadar erkinligi kabi jihatlarni bayon qilishdan iborat. Bu borada chet el fuqarolariga alohida ta’rif belgilanganligini aytib o‘tish kerak.Yuqoridagi omillar va ayrim imtiyozlar tufayli amirlik bekliklarining shahar va qishloqlarida turk va afg‘on fuqarolari anchagina salmoqli sonni tashkil etilgan. Rus va turk fuqarolari oarsida arman yahudiylar ham bo‘lib, ular sudxo‘rlik bilan shug‘ullanishgan. Bunday shaxslar o‘z qo‘riqchi va yordamchilari bilan bozorlarni aylanib, savdogar va aholi vakillaridan qarzlarini to‘plab yurishgan.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda ushbu masalaga Turkiston rayon qo‘riqlash bo‘limi (Oxranka, Maxsus idora, 1907-yilda tuzilgan) faoliyati bilan bog‘liq arxiv hujjatlaridagi ma’lumotlar asos qilib olingan. Shunigdek, XX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisdoiy, madaniy-siyosiy hayoti, aholining, ayniqsa, shahar va markaziy hududlarda istiqomat qiluvchi insonlarning turmush tarzi va xo‘jalik hayotiga oid ilmiy xulosalar keltirilgan adabiyotlar quydagilar: 1. O‘zbekiston Milliy Arxividagi asosiy ma’lumotlar. 2. Hayitov Sh.A. buxoroliklarning xorijdagi tashkilot va uyushmalari. XX asrda Buxoro amirligiga qarashli bo‘lgan hududlarda mahalliy va chet el fuqarolari o‘rtasida sodir bo‘lgan turli nizoli vaziyatlarda mahalliy hukumat vakillarining xatti-harakati haqida ma’lumotlar berilgan. 3. Hayitov Sh.A. o‘zbek muhojirligi tarixi (1917–1991). O‘zbek millatiga mansub muhojirlarning turmush tarzi, siyosiy va iqtisodiy faolligi haqida atroflicha yoritilgan. 4. M.Q.Abdurashidxonovning “Jadidchilik tarixidan lavhalar” asarida XX asrda mintaqa hududida sodir bo‘lgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning tahlili va aholining ijtimoiy dunyoqarshidagi tub o‘zgarishlar haiqda ma’lumot berilgan. 5. D.A.Alimova, Golobanov A.A. “O‘zbekiston mustabit tuzum davrida:siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari” asari ham Turkistonda mustamlaka yillarida olib borilgan siyosiy-iqtisodiy va ma’naviy-mafkuarviy jarayon va ularning millat taraqqiyotidagi salbiy oqibatlari haqida muhim tadqiqot ishlari olib borilgan asar hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. 1912–1923-yillarda (Turkiston rayon qo‘riqlash bo‘limi–Oxranka, maxsus idora bo‘lib 1907-yilda tuzilgan, uning faoiyati bilan bog‘liq arxiv hujjatlariga asosan) Buxoro amirligi bekliklaridagi “ziyolilar” (madarasa talabalari, amaldorlar, ilg‘or fikrli tijoratchilar)orasida Turkiya va Afg‘onistondagi sodir bo‘layotgan siyosiy va ijtimoiy voqealarga qiziqish kuchaygan.“Turkiyaning Bolqon

urushidagi janglari (1911–1912, 1912–1913)" yillarida (1 va 2-Bolqon urushlari haqida fikr bildirilayapti) uni bu janglardagi qo'llab-quvvatlash zarurligi haqidagi munozaralar beklik va shaharlarda avj olgani amirlik markazi va bekliklarida Afg'onistonda nashr etilayotgan ommaviy axborot vositalaridan gazeta va jurnallar mutolaa qilinmoqda. Turk sultoni Rashod V. va turk shahzodalarining ko'rinishlari va "Yosh turklar" faoliyati tasviri tushirilgan otkritkalar tarqatilmoqda. Turkiyada chiqarilgan sirkuryarlar bilan birga gazetalarga qiziqish kuchaygan.Rossiya musulmonlari orasida Bog'chasaroyda nashr etilgan "Tarjimon" gazetasi bilan birga turk va afg'on matbuoti keng tarqalmoqda [2;241-b.] kabi qaydlar mavjud,arxiv hujjatida. Buxoro amirligi poytaxti hisoblangan Eski Buxoro shahrida yashagan, asli, turk fuqarosi bo'lgan Xo'ja Abdulahad Rohatboyev haqida imperiya ayg'oqchilari maxfiy ravishda to'plagan ma'lumotlar arxivda saqlangan. Ushbu shaxs to'g'risida: "Xo'ja Abdulahad etikdo'z Rohatboy o'g'li, Eski Buxoro shahrida yashaydi, uning shaxsiy uyi shahardagi Shafaat bozori yonida joylashgan. Hozirga qadar (1913-yil 22-avgust) Xo'ja Abdulahad uyida Konstantinopol (Istanbul) Suriya, Iroq, Makka, Madina (Arabistondan) Konstantinopol safaridan Eski Buxoro shahriga Turkiyadagi o'g'li bilan birga qaytgan. Uning uyida turk va afg'onlar doimo mehmon bo'lib turadi" [3;318-b.].

Xo'ja Abdulahad Rohatboyev Konstantinopol safarlaridan birida turk sultoni Abdulmajid bilan uchrashishga muvaffaq bo'lgan.Keyinchalik turkiyalik mehmonlar unga Turkiyadan ma'lumotlar olib kelishgan va u ba'zi maxsus topshiriqlarni bajargan. "Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi ayg'oqchiligi idorasi va Oxranka Xo'ja Abdulahad uyiga 1913-yilda turk fuqaroaridan Rizabey afandi, Mustafo afandilar tashrif buyurganini aniqlashgan. Turkiyaga borib qaytgan Buxoro amirligidagi tub joy aholisi vakillari (o'zbek, turkman va tojiklar) Rohatboyev uyida ko'p bor bo'lishgan. Ushbu shaxs buxorolik ilg'or fikrli yoshlarni Turkiyada oliy ta'lim olishga tashviq va targ'ib qilayotganlarning yetakchisi hisoblanadi" [4;316-b.]. Bizga ma'lumki, "Tarjimon" gazetasi Rossiya musulmonlarining birinchi gazetasi bo'lib,1883–1918-yillarda jadidchilikning g'oyaviy-ma'naviy otasi Ismoil G'aspirali tomonidan Bog'chasaroyda chop etilgan. Gazeta yashirin ravishda Buxoro amirligi hududlariga tarqatilgan. Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarida 1000 nafar obunachisi bo'lgan.

Buxoro amirligining janubiy va sharqiy bekliklarida, xususan, G'uzor bekligi va bir qator volostlarida va Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi shaharlarida mahalliy aholi orasida Turkiya turklarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ziyoli va savdogarlar targ'ibot olib borishgan. Ayniqsa, 1911–1913-yillarda ushbu shaxslarga tayangan 3–4 nafar turk fuqarolari yuqorida qayd etilgan shaharlarga kelib, vaqtincha istiqomat qilishgani arxiv ma'lumotlarida qayd etilgan. Aynan shu yillarda G'uzor bekligidagi amir amaldorlari (bek, qozi, rais va h.k.) aholiga nisbatan jabr-zulmni kuchaytirganliklari, ocharchilik hukm surgan va aholining qash-shoqlashganligiga qaramay, soliq zulmi oddiy xalqda turk fuqarolari targ'ibotiga ishonchni kuchaytirgan. Amirlik bekliklarida o'g'li va qiz bolalarni "tortiq" qilishdek qabih odat hukm surganligi, bu esa turk va mahalliy ziyolilar tomonidan qoralanib targ'ib etilishi ham tubjoy kishilarida,bekliklarning shahar va qishloqlarida turklarga nisbatan hurmatni oshirgan" [5;339-b.]. Turkiston hududiy qo'riqlash bo'limi mahalliy aholi bilan Rossiya fuqarolari o'rtasidagi ro'y berib turadigan mushtlashuv va to'qnashuvlarga asosiy sabab amirlikning turli hududlarida turklarning paydo bo'lishi deb millatchilik va fanatizmda turk fuqarolarini ayblashga qaratilgan qarorlar chiqargan. Jumladan,1913-yilning yozida G'uzor bekligi markaziy bozorida rus millatiga mansub Ko Zinger firmasi xizmatchisi va yana bitta rus do'kondori o'zbeklar bilan tovar savdosi ustida janjal kelib chiqqan. Ushbu to'qnashuvda 2 nafar o'zbek halok bo'lgan, 3 nafar o'zbek qattiq jarohat olgan, 2 nafar rus fuqarosi balchiqqa qorishib, qattiq jarohatlangan. Janjal joyiga bek, harbiy gornizon boshlig'i, polismeystr tezda yetib kelgan. Ushbu janjal turklarning "kofirlar"ga qarshi antirus targ'ibotidan kelib chiqqanligi, bek rus hukumati a'zolari yetib kelguncha Rossiya fuqarolari hisoblangan bir necha rus va armanlarni Dushanbe qishlog'ida hibsda saqlagani ham shundandir" [6:4-b.] deb xabar berilgan "Туркестанский курьер" gazetasida.

Bolqon urushining 1 bosqichi davrida (1912–1913-yillar) Buxoro amirligi hududida Turkiya foydasiga mablag' to'plash uchun tashkil etilgan harakat ishtirokchilarining faoliyati bo'yicha aniq ma'lumotlar bor. Turkiyada "yosh turklar" tomonidan tuzilgan "Ittihod va taraqqiy" ("Birlik va taraqqiyot") partiyasi maslakdoshlari Buxoro amirligida mavjudligi bilan bog'liq ma'lumotlar saqlangan. Manbalardan birida: "Ittihod" komiteti a'zolaridan Samarqand shahridan bo'lgan savdogar Hoji Mamed, Bog'ir O'ga Rizayev. Samarqand shahri oqsoqoli Hoji Yoqub, buxorolik Mirzo Mahdi va turkman Xo'jabeklar Eronning Tabriz shahriga turk xalqi foydasiga pul to'plash uchun ketganlar. Biroq ular asir olinib, Tiflis (Gruziya) shahriga yuborilgan.Kavkaz rayon qo'riqlash bo'limida hibsda ushlab turibdi" [7;434-b.] deb qayd etilgan. Hibsda ushlab turilganlar orasida buxorolik Mirzo Mahdi "turkparastligi", "panislomchi", "Ittihod" kamitetida ancha mavqega egaligi kabilar tezkor maxfiy bildirishnomada alohida ko'rsatilgan. Uning Konstantinopolda

bo‘lganligi,Tabrizda ham maslakdoshalri borligi haqida 1913-yil 10-avgustdagi 6052-maxfiy xatida yana bir eslatib o‘tilgan [8;436-b.]. Turklarning Bolqon urushidagi g‘alabasi uchun Buxoro amirligi va Turkistondagi badavlat, millioner, obro‘li shaxslar ham pul berganligi to‘g‘risida ma’lumotlar hujjatlarda keltirilib, andijonlik millioner Mirkomilboy Mirmo‘minboyev turklarga moddiy madad bergan kabi fikrlar aholi orasida tarqalgan [9;340-b.].

Tahlil va natijalar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Usmoniylar imperiyasi ya’ni hozirgi Turkiya davlati bilan madaniy-ma’rifiy aloqalari ancha rivoj topgan.Amirlik hududida yashovchi mahalliy aholi Konstantinopol (Istanbul) orqali muborak haj safariga borish, savdo-sotiq qilish uchun faol qatnashganlar. Mahalliy aholining ziyoli va ma’rifatparvar qatlami orasida Istanbulda o‘z farzandlarini o‘qitib,ma’lumotli qilish an’anasi keng avj olgan. Bu esa Turkiyadagi ilg‘or fikrli turk fuqarolari hamda turkistonlik (o‘zbeklar) bilan yaqinlashuv jarayonini kuchaytirdi. Ular dindoshlik, lisoniy va etnik yaqinlik, qavm-qarindoshlik aloqlaridan foydalanib, milliy uyg‘onish, milliy birdamlik g‘oyalarini ilgari sura boshladilar. Shunday bo‘lsa-da, turklar orasida oz bo‘lsa-da, ayg‘oqchi-josuslar mavjud bo‘lganligini ham aytib o‘tish kerak. Butun Turkiston mintaqasi singari, Buxoro amirligi hududida ham Turkiyaning 1- va 2-Bolqon urushida ustunligini ta’minlash uchun moddiy-ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida “pul to‘plash” kompaniyasi harakati vujudga keldi. Bunday jarayonlarga amirlikning savdogar va ziyolilari, taraqqiyparvar kayfiyatdagi amaldorlar yetakchilik qildilar va aholi orasida yashirin targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borganlar.

Xulosa va takliflar. XX asrning dastlabki yillarida Buxoro amirligining beklik va shaharlarida qariyb 7 ming nafar turk millatiga mansub aholi istiqomat qilgan va ularning ijtimoiy tarkibi xilma-xil bo‘lgan. Xorijiy fuqarolar orasida ziyoli qatlam va savdogarlar qatlami talaygina bo‘lib,ularning milliy hurriyat harakati va birlik borasida olib borgan kurashlari “panislomchi”, “panturkchi” kabi soxta ayblar asosida qoralandi. Rus-turk urushlari va I Jahon urushi yillarida Buxoro amirligida turklarga xayrixohlikni kuchaytirish maqsadida qator turk emissarlari targ‘ibot olib bordilar. Rus hukumati esa ularga qat’iy va keskin choralar ko‘rdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘MA), I-461-fond,1-ro‘yxat,1312-yig‘ma jild, 240-varaq.
[2]. O‘MA, I-461-fond,1-ro‘yxat,1312-yig‘ma jild, 240-varaqning orqasi.
[3]. O‘MA, I-461-fond,1-ro‘yxat,1312-yig‘ma jild, 318-varaq.
[4]. O‘MA, I-461-fond,1-ro‘yxat,1312-yig‘ma jild, 316-varaq
[5]. O‘MA, I-461-fond,1-ro‘yxat, 1312-yig‘ma jild, 339-varaq.
[6]. Gissar (Бухарская владения) (От наш корресп) «Туркестанский курьер» за 1913, с. 4.
[7]. O‘MA, I -461-fond. 1-ro‘yxat, 1312-yig‘ma jild, 434-varaq.
[8]. O‘MA, I -461-fond. 1-ro‘yxat, 1312-yig‘ma jild, 436-varaq
[9]. O‘MA, I -461-fond. 1-ro‘yxat, 1312-yig‘ma jild, 340-varaq, 340-varaqning orqasi.

Reference:s

[1]. National Archive of Uzbekistan (NAU), Fond I-461, Inventory 1, File 1312, folio 240.
[2]. NAU, Fond I-461, Inventory 1, File 1312, folio 240 verso.
[3]. NAU, Fond I-461, Inventory 1, File 1312, folio 318.
[4]. NAU, Fond I-461, Inventory 1, File 1312, folio 316.
[5]. NAU, Fond I-461, Inventory 1, File 1312, folio 339.
[6]. Hissar (Bukhara possessions) (From our correspondent), “Turkestanskiy Kurier”, 1913, p. 4.
[7]. NAU, Fond I-461, Inventory 1, File 1312, folio 434.
[8]. NAU, Fond I-461, Inventory 1, File 1312, folio 436.
[9]. NAU, Fond I-461, Inventory 1, File 1312, folio 340, folio 340 vers.